



**USMONIYLAR IMPERIYASINING YEVROPAGA YURISHLARI:
SABABLAR, OQIBATLAR VA GEOSIYOSIY VAZIYATGA DOIR AYRIM
MULOHAZALAR**

Shaxzoda JALOLOVA

*TDSHU, Sharq mamlakatlari tarixi yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola Usmonli imperiyasining Yevropaga yurishlarini tahlil qiladi va bu harakatlarning sabablari, oqibatlari va geosiyosiy ta'sirlarini o'rganadi. Maqola Usmonli sarkardalarining harbiy muvaffaqiyatlari, shuningdek, Vena qamali va Lepanto dengiz janglari kabi muhim tarixiy voqealar orqali Yevropa bilan bo'lgan aloqalarni o'z ichiga oladi. Yevropaning siyosiy va diplomatik tuzilmasining shakllanishiga, shuningdek, Usmonlilarning Yevropadagi diplomatiyasi va hududiy kengayishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni yoritadi. Ushbu maqola, Usmonli imperiyasining Yevropa siyosatidagi o'rni, uning harbiy g'alabalari va mag'lubiyatlarini o'zida aks ettirib, imperiyaning bugungi geosiyosiy pozitsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatganini ko'rsatib beradi. Maqola, nafaqat tarixiy voqealarni, balki bugungi kunda ham Usmonli merosining Yevropa siyosatiga bo'lgan ta'sirini tahlil qiladi.

Tayanch so'z va iboralar: Usmonli imperiyasi, Yevropaga yurishlar, geosiyosiy ta'sir, Mohaç jangi, Vena qamali, Lepanto dengiz jangi, diplomatiya va siyosat, Yevropa siyosati, harbiy g'alabalar, imperiya kengayishi, Turkiya-Yevropa aloqalari, harbiy tarix, Usmonli imperiyasining Yevropadagi o'rni, Usmonlilarning geosiyosiy strategiyalari.

Annotation: This article analyzes the Ottoman Empire's military campaigns into Europe, exploring the causes, consequences, and geopolitical impact of these actions. The article delves into the military successes of Ottoman commanders, including key historical events such as the Siege of Vienna and the Battle of Lepanto, which shaped their relations with Europe. It examines the factors influencing the



political and diplomatic structure of Europe, as well as the Ottomans' expansionist policies. By exploring the Ottoman Empire's role in European politics, its victories and defeats, the article highlights how the empire's legacy continues to influence modern geopolitical positions. The article provides an in-depth analysis of the Ottoman Empire's lasting impact on both historical events and contemporary geopolitical dynamics.

Keywords: Ottoman Empire, European campaigns, geopolitical impact, battle of Mohács, siege of Vienna, battle of Lepanto, Diplomacy and politics, European politics, military victories, Empire expansion, Turkey-Europe relations, military history, role of the Ottoman Empire in European history, Ottoman geopolitical strategies.

Аннотация: Данная статья анализирует военные походы Османской империи в Европу, рассматривая причины, последствия и геополитическое влияние этих действий. Статья охватывает военные успехи османских командиров, включая ключевые исторические события, такие как осада Вены и морское сражение при Лепанто, которые сформировали отношения Османов с Европой. Рассматриваются факторы, оказавшие влияние на политическую и дипломатическую структуру Европы, а также экспансионистская политика Османов. Исследуя роль Османской империи в европейской политике, её победы и поражения, статья показывает, как наследие империи продолжает влиять на современные геополитические позиции. Работа предоставляет глубокий анализ как исторических событий, так и продолжительного воздействия Османской империи на современные геополитические процессы.

Ключевые слова: Османская империя, Европейские походы, Геополитическое влияние, Битва при Мохаче, Осада Вены, Морское сражение при Лепанто, Дипломатия и политика, Европейская политика, Военные победы, Экспансия империи, Отношения Турции и Европы, Военная история, Роль Османской империи в европейской истории, Геополитические стратегии Османов.



Tarix sahnasida buyuk saltanatlar qatorida o'zining qudrati, uzoq davom etgan hukmronligi va beqiyos harbiy yurishlari bilan alohida o'rin tutgan Usmonli imperiyasi Yevropa xaritasini tubdan o'zgartirgan davlatlardan biridir. Anadolu cho'llaridan boshlangan bu saltanatning yuksalishi nafaqat Sharq, balki G'arbning ham taqdiriga ta'sir ko'rsatdi. Uning yurishlari shunchaki harbiy ekspansiya emas, balki murakkab geosiyosiy shart-sharoit, diniy omillar va iqtisodiy manfaatlar bilan bog'liq uzoq yillik strategiyaning natijasi edi. Nega aynan Usmonlilar Yevropaga yurish qilishni maqsad qildilar? Ularning oldida qanday to'siqlar turdi va bu yurishlar Yevropa davlatlarini qanday o'zgartirdi? Bularning barchasi XV-XVI asrlarning dunyo tartibini belgilab bergan, tarixiy burilish yasagan voqealar sirasiga kiradi. Biz ushbu maqolada Usmonlilarning Yevropadagi harbiy yurishlari, ularning sabablari va oqibatlarini geosiyosiy manzaralar asosida tahlil qilamiz. Bu nafaqat jang maydonlarida qon bilan yozilgan tarix, balki iqtisodiy manfaatlar, madaniy to'qnashuvlar va dunyoning siyosiy qiyofasini o'zgartirgan harakatlarning hikoyasidir.

Usmonli imperiyasining Yevropaga yurishlari XIV asrning ikkinchi yarmida boshlandi va keyingi asrlarda butun qit'aning siyosiy, iqtisodiy va harbiy muvozanatiga ta'sir ko'rsatdi. Bu yurishlarning sabablari faqat harbiy ekspansiya yoki islomni yoyish bilan cheklanib qolmay, balki chuqur geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarga ham bog'liq edi.

Usmonlilar Yevropa va Osiyo o'rtasida joylashgan bo'lib, Konstantinopol (hozirgi Istanbul) orqali Yevropaga yo'l ochish strategik maqsad edi. G'arbiy Yevropadan Sharqiy Yevropaga, shuningdek, Osiyoga olib boruvchi savdo yo'llarining boshqaruvi Usmonlilar uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1453-yilda Usmonlilar tomonidan Konstantinopolning zabt etilishi nafaqat Vizantiya imperiyasining qulashiga sabab bo'ldi, balki Usmonlilarning Yevropaga kengroq yurishlariga eshik ochdi. Bolqon yarimoroli tog'li hududlardan iborat bo'lsa-da, yirik himoya istehkomlari kam edi. Bu esa Usmonlilarga tezkor yurishlar uyushtirish imkonini berdi. Ayniqsa, Serbiya va Bolgariyaning bo'linib ketgan siyosiy tuzilishi ularning tezda zabt etilishiga zamin yaratdi. 1389-yilda bo'lib o'tgan Kosovo jangi natijasida Usmonlilar Serbiya ustidan hukmronlikni o'rnatdi. 1396-yilda esa Nikopol



jangida Usmonlilar G'arbiy Yevropaning qo'shma harbiy ittifoqini mag'lub etib, Bolgariya ustidan to'liq nazorat o'rnatdi.

Usmonlilar savdo yo'llarini qo'lga kiritish orqali iqtisodiy jihatdan kuchayish maqsadida Yevropaning muhim shahar va portlarini egallashga harakat qildi. Yevropa va Osiyo o'rtasidagi ipak va ziravorlar savdosi ularga ulkan daromad keltirishi mumkin edi. 1453-yilda Konstantinopolning bosib olinishi bilan Yevropaning Sharqiy savdo yo'llariga chiqishi qiyinlashdi, bu esa Buyuk geografik kashfiyotlarga turtki berdi.¹ Usmonlilar yurish qilayotgan davrda Yevropaning ko'plab davlatlari iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelayotgan edi. O'rta asrlardagi Qora o'lat (1347-1351) natijasida Yevropaning katta qismi iqtisodiy zaiflashdi. Shu sababli Usmonlilar bu zaiflikdan foydalanib, Yevropaga yurishlarni tezlashtirdi. XIV asrning ikkinchi yarmida Yevropada dehqonlar isyonlari va feodal urushlari avj oldi, bu esa Usmonlilar yurishlarini osonlashtirdi.

Usmonlilar o'z harbiy tizimini Yevropa davlatlarinikidan ancha samarali tashkil qilgan edi. Ular muntazam armiya tuzib, jangchilarni yanicharlar kabi professional askarlardan tashkil etdi. Yevropa davlatlari esa ko'proq feodal lashkarlarga tayanar edi. Usmonlilar tomonidan 1363-yilda yaratilgan Yanicharlar korpusi Yevropa armiyalariga nisbatan yuqori harbiy intizom va samaradorlikka ega bo'lgan professional askarlardan tashkil topgan edi.

XIV-XV asrlarda Yevropa davlatlari o'zaro urushlar bilan band edi. Ayniqsa, Angliya va Fransiya o'rtasidagi Yuz yillik urush (1337-1453) natijasida G'arbiy Yevropa davlatlari Usmonlilarga qarshi samarali kurasha olmadi. 1453-yilda Konstantinopol Usmonlilar tomonidan egallanganda, ko'plab G'arbiy Yevropa davlatlari bu voqeaga jiddiy e'tibor qaratmadi, chunki ular ichki urushlar bilan band edi. Usmonlilar o'z yurishlarini faqat hududiy ekspansiya sifatida emas, balki jihod (Islomni yoyish maqsadidagi urush) sifatida ham ko'rgan. Bu mafkura askarlarni ruhlantirishda muhim rol o'ynagan. Sultan Mehmed II Konstantinopolni egallaganidan

¹ Usmonli imperiyasi tarixi <https://history-maps.com/story/History-of-the-Ottoman-Empire>



so'ng, shahardagi eng yirik cherkov – Ayasofiyaning masjidga aylantirdi, bu Usmonlilarning diniy va siyosiy g'alabasini ramziy ma'noda mustahkamladi.²

Usmonlilarning Yevropaga yurishlari faqat harbiy ekspansiya yoki diniy sabablar bilan bog'liq emas, balki geosiyosiy, iqtisodiy va harbiy ustunlik omillari ham muhim rol o'ynagan. Yevropa davlatlarining ichki bo'linishi, iqtisodiy inqiroz va harbiy zaiflik Usmonlilarning tez fursatda Yevropaning katta qismini egallashiga imkon yaratdi. Natijada Usmonlilar XIV-XVII asrlarda Yevropa tarixida katta rol o'ynadi va G'arb bilan Sharq o'rtasidagi muvozanatni tubdan o'zgartirdi. Usmonlilar yurishlarining uzoq muddatli natijalari esa Yevropa davlatlarini birlashishga undadi, bu esa keyinchalik Muqaddas Liga urushlari (1683-1699) ga olib keldi va Usmonlilarning Yevropadagi ekspansiyasiga chek qo'ydi.

Usmonli imperiyasining Yevropadagi kengayishi XIV asr oxiridan boshlangan bo'lsa-da, XVI-XVII asrlarda bu jarayon yanada jadallashdi. Ayniqsa, Mohach jangi (1526) va Vena qamallari (1529, 1683) Yevropa va Usmonlilar o'rtasidagi hal qiluvchi to'qnashuvlar bo'ldi. Bu voqealar Usmonlilarning Markaziy Yevropaga yurishlari hamda Yevropa davlatlarining ularning ekspansiyasiga qarshi turish yo'lidagi sa'y-harakatlarini aks ettiradi. Mohach jangi (1526) Usmonlilar va Vengriya qirolligi o'rtasidagi muhim to'qnashuv bo'lib, 29-avgust kuni sodir bo'ldi.³ Sulton Sulaymon I Qonuniy boshchiligidagi Usmonli qo'shinlari Markaziy Yevropada o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida Vengriya qirolligiga yurish boshladi. Vengriya qiroli Lajos II boshchiligidagi qo'shinlar son jihatdan Usmonlilarga qaraganda kam edi va jang faqat bir kun davom etib, to'liq Usmonlilarning g'alabasi bilan yakunlandi. Vengriya armiyasining katta qismi yo'q qilindi, qiroli Lajos II esa qochish chog'ida daryoga cho'kib halok bo'ldi. Bu g'alaba natijasida Usmonlilar Vengriyaning katta qismini o'z nazoratiga oldi va mamlakatni bevosita boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldi.⁴ Mohach jangidan so'ng, Sulaymon I Qonuniy Markaziy Yevropada o'z ta'sirini yanada kengaytirish uchun Muqaddas Rim imperiyasining asosiy shaharlaridan biri bo'lgan

² Suraiya Faroqhi. The Ottoman Empire: A Short History. Markus Wiener Publishers. P.45-47.

³ Battle of mohacs - World History Encyclopedia <https://www.worldhistory.org/search/?q=battle+of+mohacs>

⁴ Lord Kinross. The Ottoman Centuries: The Rise and Fall of the Turkish Empire. Morrow Quill Paperbacks. P.220-225.



Venani egallashga harakat qildi. Vena qamali (1529) Usmonlilarning Yevropaga chuqur kirib borishga qilgan eng katta urinishlaridan biri bo'ldi. Usmonlilar taxminan 120,000 kishilik qo'shin bilan Venani qamal qildi, lekin shahar mustahkam devorlari va mudofaasi tufayli Usmonlilar uzoq vaqt davomida shaharga kira olmadi. Bundan tashqari, qattiq yomg'irlar va sovuq ob-havo Usmonlilarning harbiy harakatlarini murakkablashtirdi. Qamal 25-sentyabr kuni boshlangan bo'lsa-da, 14-oktyabrda Usmonlilar chekinishga majbur bo'ldi. Bu mag'lubiyat Usmonlilarning Markaziy Yevropada to'xtatilishi yo'lida birinchi muhim bosqich bo'ldi. Oradan bir yarim asr o'tib, 1683-yilda Usmonlilar yana Venani egallashga urinadi. Ikkinchi Vena qamali (1683) Usmonli imperiyasining Yevropadagi so'nggi katta ekspansiya harakati hisoblanadi.⁵ Sulton Mehmed IV boshchiligidagi Usmonli qo'shinlari shaharni yana qamal qildi, biroq bu safar Yevropa davlatlari birlashgan holda qarshilik ko'rsatdi. Polsha qiroli Sobeskiy Ioann III boshchiligidagi qo'shinlar Muqaddas Rim imperiyasi bilan ittifoq tuzib, Venani himoya qildi. 12-sentyabr 1683-yilda bo'lib o'tgan hal qiluvchi jangda Usmonlilar og'ir mag'lubiyatga uchradi va butunlay chekinishga majbur bo'ldi. Bu mag'lubiyat Usmonlilarning Yevropadagi ekspansiyasi tugashining boshlanishi bo'ldi va natijada 1699-yilda Karlovitsa tinchlik shartnomasi imzolandi, bu esa Usmonlilarning Markaziy Yevropadagi ta'sirini butunlay yo'qotishiga olib keldi. Xulosa qilib aytganda, Mohach jangi Usmonlilar uchun Yevropaga yo'l ochgan bo'lsa, 1529-yilgi Vena qamali ularning birinchi katta to'xtatilishi bo'ldi.⁶ 1683-yildagi Ikkinchi Vena qamali esa Usmonlilar uchun keskin burilish nuqtasi bo'lib, imperiyaning Yevropadagi orqaga chekinish davrini boshlab berdi. Bu janglar nafaqat harbiy tarix, balki siyosiy va madaniy jihatdan ham Yevropa va Usmonlilar o'rtasidagi keskin munosabatlarga asos yaratdi.

1571-yilda bo'lib o'tgan Lepanto dengiz jangi Usmonli flotining eng katta mag'lubiyati bo'ldi. Bu jangda Avstriya, Ispaniya va Papalik armiyalari birlashib, Usmonli flotini mag'lubiyatga uchratdi. Ushbu jang Usmonli imperiyasining dengiz hukmronligini yo'qotishi bilan yakunlandi. Biroq, bu mag'lubiyat Usmonlilarning

⁵ <https://www.history.com/topics/reformation/battle-of-vienna>

⁶ Colin Imber, The Ottoman Empire, 1300-1650: The Structure of Power. Palgrave Macmillan. P.300-305.



harbiy qudratiga ta'sir ko'rsatmagan, balki ular o'zlarining mamlakatlaridagi ichki ishlar va siyosatlarni yaxshilashga e'tibor qaratishdi. Usmonli imperiyasi o'zining strategik geografik joylashuvi va mustahkam iqtisodiy bazasi yordamida o'zining siyosiy mustahkamligini davom ettirdi.

Usmonli imperiyasining Yevropadagi diplomatik siyosati ham juda muhim edi. Xususan, Fransiya bilan qurilgan ittifoq Usmonlilarga Yevropadagi eng katta kuchlardan biri bo'lish imkonini berdi. Fransiya bilan tashkil etilgan ittifoq, birinchi navbatda, Usmonlilarga o'zlarini Yevropada himoya qilish imkoniyatini taqdim etdi. Usmonli imperiyasi va Yevropaning boshqa davlatlari o'rtasidagi munosabatlar, harbiy hujumlar va o'zaro diplomatik strategiyalar, Yevropa tarixidagi katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Usmonlilar, o'zlarining davlat boshqaruvidagi murakkab tizimlari va yirik ko'lamdagi harbiy qudratlari bilan Yevropada o'ziga xos siyosiy maydon yaratdilar.

Usmonli imperiyasining Yevropaga yurishlari, tarixiy jihatdan katta geosiyosiy ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda, Usmonli imperiyasining eski hududlarida, masalan, Bolqon davlatlarida, uning madaniy merosi hali ham mavjud. Bu yurishlar nafaqat harbiy g'alabalar, balki Yevropaning siyosiy xaritasini o'zgartirgan bir qator diplomatik va iqtisodiy xatti-harakatlarni ham o'z ichiga oladi. Turkiyaning bugungi geosiyosiy pozitsiyasi ham Usmonlilarning tarixiy merosidan juda ko'p ta'sirlangan.

Xulosa qilib aytganda, Usmonli imperiyasining Yevropaga yurishlari, uning harbiy, diplomatik va iqtisodiy strategiyalarining muvaffaqiyatlari hamda mag'lubiyatlari, tarixda juda katta ahamiyatga ega. Yevropadagi siyosiy va madaniy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatgan bu yurishlar, nafaqat Usmonli imperiyasining o'zi, balki butun dunyo tarixida iz qoldirdi. Bugungi kunda, Usmonli imperiyasining o'tmishi, siyosat va madaniyat merosi sifatida ko'plab millatlar va davlatlar uchun ilmiy, madaniy va siyosiy ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, Usmonli imperiyasining Yevropaga yurishlari, nafaqat imperiyaning o'zining tarixini, balki Yevropa tarixini ham shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Bu harbiy yurishlar orqali amalga oshirilgan harbiy operatsiyalar, diplomatik aloqalar va madaniy o'zaro



ta'sirlar, Yevropa va Usmonli imperiyasi o'rtasidagi munosabatlarning murakkabligini va o'zgaruvchanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Suraiya Faroghi. The Ottoman Empire: A Short History. Markus Wiener Publishers. P.192.
2. Usmonli imperiyasi tarixi <https://history-maps.com/story/History-of-the-Ottoman-Empire>.
3. Battle of mohacs - World History Encyclopedia <https://www.worldhistory.org/search/?q=battle+of+mohacs>
4. Lord Kinross. The Ottoman Centuries: The Rise and Fall of the Turkish Empire. Morrow Quill Paperbacks. P.640.
5. <https://www.history.com/topics/reformation/battle-of-vienna>
6. Colin Imber. The Ottoman Empire, 1300-1650: The Structure of Power. Palgrave Macmilan. P.400.